



**SUD – HUQUQ ISLOHOTLARI DOIRASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISHNING PROTSESSUAL KAFOLATLARI**

Andijon Davlat Universiteti

Huquq - Iqtisod fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

yo'nalishi 1 – bosqich 105 – gurux talabasi

Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li

“Korrupsiya — davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid. Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa islohotlarimizga xiyonatdir! Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda „favqulodda holat“ e'lon qilamiz!”

Sh.M.Mirziyoyev¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari doirasida korrupsiyaga qarshi kurashishning protsessual kafolatlari tahlil qilingan. Xususan, sudyalar mustaqilligini ta'minlash, ularning daxlsizligini kafolatlash, sud tizimida shaffoflik va ochiqlikni kuchaytirish, moliyaviy mustaqillikni mustahkamlash hamda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, Prezident farmonlari asosida sud tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar va ularning amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijasida sud hokimiyatining mustaqilligi korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy omillaridan biri ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Sud-huquq islohotlari, korrupsiyaga qarshi kurashish, protsessual kafolatlar, sudyalar mustaqilligi, sudyalar daxlsizligi, shaffoflik, jamoatchilik nazorati, odil sudlov, huquqiy davlat, sud tizimi.

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/26/corruption/>



Abstract: *This article analyzes the procedural guarantees of combating corruption within the framework of judicial and legal reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan. In particular, issues of ensuring the independence of judges, guaranteeing their immunity, strengthening transparency and openness in the judicial system, strengthening financial independence, and developing public control are highlighted. Also, based on Presidential decrees, legal mechanisms aimed at preventing corruption in the judicial system and their practical significance are revealed. As a result of the study, it was substantiated that the independence of the judiciary is one of the main factors in the fight against corruption.*

Keywords: *Judicial and legal reforms, anti-corruption, procedural guarantees, judicial independence, judicial immunity, transparency, public control, fair trial, rule of law, judicial system.*

Аннотация: *В данной статье анализируются процессуальные гарантии борьбы с коррупцией в рамках судебно-правовых реформ, осуществляемых в Республике Узбекистан. В частности, освещены вопросы обеспечения независимости судей, гарантии их неприкосновенности, усиления прозрачности и открытости в судебной системе, укрепления финансовой независимости и развития общественного контроля. Также на основе указов Президента раскрыты правовые механизмы, направленные на предотвращение коррупции в судебной системе, и их практическое значение. В результате исследования обосновано, что независимость судебной власти является одним из основных факторов борьбы с коррупцией.*

Ключевые слова: *Судебно-правовые реформы, борьба с коррупцией, процессуальные гарантии, независимость судей, неприкосновенность судей, прозрачность, общественный контроль, правосудие*

Kirish

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari mazmun-mohiyatida qonuniylikni ta'minlash, fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari va investorlarda odil sudlov hamda ijtimoiy adolatga nisbatan ishonch hissini yanada kuchaytirish ustuvorlik kasb etmoqda. Bu borada sud hokimiyatining jamiyatda



korrupsiyaga qarshi kurashishdagi o'rnini oshirish va boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilayotganligini qayd etish joiz.

Asosiy qism

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni² bilan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Kengashi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi kiritilgan.

O'z navbatida, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan Oliy sud va Sudyalar Oliy kengashi o'rtasida o'zaro hamkorlik Memorandumlari imzolangan. Hamkorlik samarasi sifatida Respublikada korrupsiyaga oid, jumladan, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro imijga zarar yetkazuvchi jinoyatlarni tergov qilish natijalari doimiy tarzda kompleks tahlil qilib kelinmoqda.

Tahlillar davomida mamlakatda korrupsiyaga oid jinoyatchilik holati va tendensiyaga umumiy baho berilmoqda, shuningdek, korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan sohalar, jamiyatda korrupsiyani keltirib chiqarayotgan hamda ularni bartaraf qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

O'rganishlar mobaynida sudlarning chin ma'noda mustaqilligini ta'minlash va ularning faoliyatiga har qanday ko'rinishdagi tashqi ta'sirlarning oldini olish muhim ahamiyatga ega ekanligi yana bir karra o'z isbotini topmoqda. Bunda ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrdagi "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6127-son Farmoni³ sud tizimini malakali va halol pok kadrlar bilan to'ldirish, har qanday ko'rinishdagi korrupsiyaning oldini olish, sud organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishda muhim huquqiy asos bo'lib kelmoqda. Mazkur Farmon

² <https://proacademy.uz/uz-lat/news/view?alias=747>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-5146554>



bilan sudyalari mustaqilligini ta'minlash va sud tizimida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

1. Sudyalarni odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha kasbiy faoliyatini har qanday ko'rinishdagi tashqi ta'sirlardan samarali muhofaza qilishni ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlarni yaratish;

2. Sudyalikka kadrlarni tanlash, tayyorlash, lavozimiga tayinlash, shuningdek, sudyalari faoliyatini baholashda xolislik va shaffoflikni ta'minlash, ushbu jarayonlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini izchil joriy qilish;

3. Sudyalari va sud apparati xodimlari orasida korrupsiya holatlarining oldini olish va barvaqt aniqlashga qaratilgan tizimni yo'lga qo'yish hamda sud tizimida aniqlangan har qanday korrupsiyaviy harakatni murosasiz holat deb baholash;

4. Sudyalarning kasbiy malakasi, ma'naviyati va mas'uliyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali yuksak professional sudyalari korpusini shakllantirish.

Bundan tashqari, Farmon bilan sud tizimida korrupsiya holatlarining oldini olish, Kengash va sud tizimi faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash borasida sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash bo'yicha imtihon jarayonlarini internet tarmog'i orqali onlayn tarzda yoritib borish yo'lga qo'yildi. Sudyalik lavozimiga nomzodlar va sudyalarning psixologik portreti bo'yicha kasbga munosibligini baholashga ko'maklashuvchi elektron dastur ishga tushurildi. Sudya faoliyatining samradorligini elektron reyting orqali ochiq va shaffof baholashni ta'minlaydigan aniq mezonlar ishlab chiqildi.

Shuningdek, sudyalarning ishni mazmunan hal etish paytida ularning odil sudlov bilan bog'liq faoliyatiga har qanday aralashuvning oldini olish maqsadida quyidagicha tartib joriy qilindi:

Birinchidan, sudyalarning daxlsizligini buzganlik va odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashganlik holatlari yuzasidan Kengash raisi tomonidan kiritilgan taqdimnoma prokratura organlari tomonidan bir oy muddatda



ko'rib chiqilib, jinoyat ishi qo'zg'atilganligi yoki qo'zg'atish rad etilganligi haqida Kengashga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokraturasi tomonidan xabar beriladi.

Ikkinchidan, sudyalarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga guvoh yoki gumon qilinuvchi sifatida so'roq qilish uchun chaqirishga tegishli malaka hay'atlari roziligi bilan yo'l qo'yilmoqda.

Uchinchidan, sud hokimiyati mustaqilligini va sudyalar daxlsizligini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan omillar va tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish holati yuzasidan Kengash raisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yil yakuni bo'yicha axborot taqdim etib boriladi.

O'z navbatida, sudlarda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni tizimli ravishda bartaraf qilish va unga qarshi kurashish samaradorligini oshirish borasidagi o'zgarishlar ham e'tiborga molikdir. Xususan, sudyalar daxlsizligini ta'minlash bo'yicha sud inspeksiyasi negizida **Sudyalar daxlsizligini ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha sud inspeksiyasi tuzildi**. Kengashga kelib tushayotgan shikoyatlarni umumlashma tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish borasida sudyalar malaka hay'atlari bilan birgalikda aniq choralar belgilash vazifasi yuklandi. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishdagi faoliyatini rag'batlantirish yo'lga qo'yildi, shuningdek, **"Ibratli sudya"** mukofoti, odil sudlovni amalga oshirishda uzoq yillar samarali mehnat qilib pensiyaga chiqqan sudyalar uchun **"Sud faxriysi"** ko'krak nishoni joriy qilindi. Kengash huzurida amaldagi moddiy va protsessual huquq normalarini to'g'ri qo'llash bo'yicha tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan maslahatlar hamda sudyalarning odob-axloq qoidalarini muayyan vaziyatlarda qo'llanilishi yuzasidan so'rovlarga tushuntirishlar berish vakolatiga ega bo'lgan jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi Sudyalar klubi tashkil etildi.

Sud organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish va sudyalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-yanvardagi "Sud organlari faoliyatini moliyalashtirish



tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida⁴gi Farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq, 2021-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Sudyalar oliy kengashi, Oliy sudi, quyi sudlar sudyalari, Sudyalar oliy maktabi va ularning apparati xodimlari, Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti va uning hududiy bo'limlari xodimlarining ish haqlari va qo'shimcha to'lovlari to'liqligicha O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi belgilandi.

O'z navbatida, sudyalar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda xalq vakillari tomonidan sudya faoliyatiga baho berish amalga oshirilmoqda, Oliy sud tomonidan **“Sud xodimlarining noqonuniy hamda korrupsion xatti-harakatlari ustidan murojat qilish manzillari”** sifatida ishonch telefonlari (71-2390179), elektron pochta⁵ hamda telegram tarmog'ida bot ishga tushurilib, ichki nazorat guruhi tomonidan nazorat olib borilmoqda.

Zero, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini qaror toptirish, ularning Konstitutsiya va qonunlarda tan olingan daxlsiz huquqlarini har qanday buzilishlarini bartaraf qilish, pirovardida fuqarolarning odil sudlov va adolatli kelajakka bo'lgan ishonchini shakllantirishga faqat sud organlarining mustaqilligi orqali erishiladi.

Xulosa

O'zbekistonda sud-huquq islohotlari izchil va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri – sud tizimida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi samarali kurashishdir. Bu jarayonda sudyalar mustaqilligi va daxlsizligini ta'minlash, ularni tanlash va tayinlash jarayonlarida shaffoflikni kuchaytirish, sud organlarining moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash muhim protsessual kafolat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, sud tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi, ochiq tanlov va elektron reyting tizimlarining qo'llanilishi, jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishi korrupsiyaviy omillarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash va uning faoliyatida

⁴ <https://www.lex.uz/ru/docs/-5215806?ONDATE=19.12.2025&ONDATE2=23.08.2025&action=compare>

⁵ nazorat.oliy@sud.uz



shaffoflikni qaror toptirish korrupsiyaga qarshi kurashishning eng muhim va samarali protsessual kafolatlaridan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023. – 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF–6013-sonli “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrda PF–6127-sonli “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-yanvardagi “Sud organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
5. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2017.

Foydalanilgan internet manbalari:

1. <https://proacademy.uz/uz-lat/news/view?alias=747>
2. <https://lex.uz/uz/docs/-5146554>
3. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5215806?ONDATE=19.12.2025&ONDATE2=23.08.2025&action=compare>
4. nazorat.oliy@sud.uz
5. <https://president.uz>
6. <https://sud.uz>
7. <https://anticorruption.uz>
8. <https://sudyalaroliykengashi.uz>
9. <https://lex.uz>
10. <https://uza.uz>